A’ZAM AYUPOV



Ayupov A’zam (1904.-21.8 - 4.X.1938) taniqli yozuvchi va jurnalist. Toshkent shahrida xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. Manafaktura savdo korxonasida ish yurituvchi bo‘lgan otasi 1917 yilda vafot etgach, oilani boqish yosh A’zam zimmasiga tushgan. 1919-1920 yillarda “Turon” kutubxona sida yugurdak va kutubxonachi bo‘lib ishlagan. 1919 yilgacha ibtidoiy maktabda o‘qigan. Shu yillarda “Qizil bayroq”, “Turkiston” gazetalari tahririyatida musahhih, adabiy xodim, Toshkent plan institutida tahsil olgan. 1921-1937 yillarda “Qizil O‘zbekiston” gazetasida xatlar bo‘limi mudiri, mas’ul kotib, shu gazetaning ilovasi sifatida nashr etilgan “Kam bag‘al dehqon”, “Yer yuzi” va keyinchalik “Guliston” jurnallarida mas’ul kotib, muharrir, mas’ul muharrir vazifasini bajargan. A’zam Ayupov o‘zbek matbuotida “Toshkentlik”, “Gazetxon”, “Tomoshabin”, “A’zam” taxalluslari bilan ijod qilgan. A’zam Ayupov tarjima sohasida qalam tebratib, F.Shillerning “Makr va muhabbat”, K.Goldonining “Mehmonxona bekasi”, L.Tolstoyning “Kavkaz asiri”, N.Gogolning “Uylanish” komediyasini, A.P.Chexov, A.M.Gorkiy, M.A.Sholoxov asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. U talaygina hikoyalar, dolzarb maqolalar muallifidir. A’zam Ayupov o‘zbek teatr tanqidchiligi soha siga munosib hissa qo‘shgan tanqidchidir. A’zam Ayupov 1937 yil 15 oktabrda qamoqqa olingan va 1938 yil 4 oktabrda otuvga hukm qilingan.